

**LEXICAL LAYERS AND THEIR SEMANTIC FUNCTIONS IN THE WORKS OF
ALISHER NAVOI**

*Berdaq State University of Karakalpakstan
Faculty of Philology, 1st-year student
Maxammadiyeva Gulbaxor*

Abstract:

This article analyzes the lexical layers and their semantic functions in the works of Alisher Navoi from a linguistic perspective. The interaction between Turkic, Arabic, and Persian layers in the poet's oeuvre, their artistic-aesthetic roles, and their contribution to meaning creation are examined on a scientific basis. Additionally, the use of lexical units in both their literal and figurative senses is illustrated with examples, highlighting Navoi's contributions to the development of the Uzbek literary language.

Keywords: Alisher Navoi, lexical layers, semantics, Turkic lexicon, Arabic layer, Persian layer, figurative meaning, literary language, development of literary language.

**ALISHER NAVOIY ASARLARIDA LEKSIK QATLAM VA ULARNING SEMANTIK
FUNKSIYASI**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi leksik qatlamlar va ularning semantik funksiyasi tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shoir ijodida turkiy, arabiy va forsiy qatlamlarning o'zaro munosabati, ularning badiiy-estetik vazifasi hamda ma'no hosil qilishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, leksik birliklarning lug'aviy va ko'chma ma'nodagi qo'llanilishi misollar asosida ko'rsatilib, Navoiyning o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi xizmatlari ochib beriladi.

Kalit sózlar: Alisher Navoiy, leksik qatlam, semantika, turkiy leksika, arabiy qatlam, forsiy qatlam, ko'chma ma'no, badiiy til, adabiy til taraqqiyoti.

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida nafaqat badiiy tafakkur, balki til taraqqiyoti tarixida ham alohida o'rin tutadi. Uning asarlarida qo'llangan leksik birliklar rang-barangligi, semantik chuqurligi va estetik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Navoiy ijodida turkiy, arabiy va forsiy qatlamlarning uyg'unligi tilning boyishiga, ma'no ifodasining kengayishiga xizmat qilgan. Shoir so'z tanlashda nihoyatda nozik did va chuqur ma'naviy tafakkurga tayangan holda, har bir leksik birlikni o'zining semantik vazifasi bilan qo'llaydi. Mazkur maqolada Navoiyning asarlaridagi leksik qatlamlar va ularning ma'no hosil qilishdagi funksiyasi tilshunoslik yondashuvi asosida tahlil qilinadi.

Alisher Navoiy, nafaqat ulug' shoir va mutafakkir, balki buyuk tilshunos olim hamdir. O'sha zamonida ilmiy asarlar arab tilida, badiiy asariy esa fors tilida yaratilar edi. O'zbek tili atrofida Navoiy ta'biri bilan aytganda, "ilonlar" va "tikonlar" bor edi. Navoiy o'zbek tilining himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lib maydonga chiqdi, ona tilining nechog'lik boy ekanini nazariy va amaliy jihatdan isbotladi. "Muhokamatul-lug'atayn" asari ana shu maqsadda yaratildi. [Topildiyeva, Tursunova, 2020. 555] "Muhokamatul-lug'atayn" asarida turkiy va forsiy tillar qiyosiy o'rganilgan. Muallif 100 ta fe'lni tahlil qilib, o'zbek tilining ifoda imkoniyati forsiy tilga nisbatan kengroq ekanini isbotlab berdi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" da "bo'xsamoq" fe'li xususida bahs yuritir ekan, mana bu turkiycha baytni keltiradi:

Hajri anduhida bo'xsabmen, bila olmon netay,
Man ilojimdur qo'pub, dayri fanog'a azm etay.
Mazkur fe'l forsiy tilda faqat bir so'z bilangina ifodalanishini ta'kidlagan mutafakkir turkiy tilda uning yig'lamoq, yig'lansinmoq, ingramoq, singramak, o'kurmak, inchkirmak, hoy-hoy yig'lamoq singari ma'no nozikliklari bilan darajalanishini alohida ta'kidlaydi. Har biriga turkiy she'riyatdan misollar keltiradi. Jumladan, hoy-hoy yig'lamoq ma'no farqlanishi jihatidan yig'lamoqning eng oxirgi darajasini anglatadi. Ushbu fe'lning bu ifoda shakli qiyomat kunidagi yig'iga nisbatan qo'llanishi ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Bu chekib o'z dardi uchun voy-voy,

Yig'lab ul o'z mehnatig'a hoy-hoy.

Qaysi fig'onkim jazai mahshar ul,

Qaysi yig'ikim fazai akbar ul". [Navoiy, 2000: 35]

"Hayrat ul-abror" dostonidagi uchinchi munojotdan olingan ushbu baytda odamlarning Tangri taolo huzuridagi holatlari bayon etilgan bo'lib, hoy-hoy yig'lamoq qiyomat kuniga xoslangan. Hazrat Navoiy yana bunday yozadi: "Va xo'blarning ko'z va qoshlari orasinki, qabog' derlar. Forsiyda bu uzvning oti yo'qtur. Masnaviyda bir jamoat xo'b ta'rifida mundoq deyilibdurkim, bayt:

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,

Qabog'lari keng-keng, og'izlari tor.

Bu singari misollar turkiy tilning bir ma'noni turlicha ifodalash borasida katta imkoniyatga ega tillardan ekanini tasdiqlaydi. Umuman, sinonimlarning ko'pligi, buning ustiga nozik ma'no farqlanishlariga ega bo'la olishi har qanday tilning lug'at boyligini ko'rsatadigan eng birinchi va asosiy xususiyatidir. "Muhokamat ul-lug'atayn" ana shu jihatdan jahon tilshunosligida yaratilgan ilmiy asarlar ichida alohida o'rin tutadi. Navoiyning nafaqat tilga oid nazariy qarashlari, asarlarining tili ham buyuk mutafakkirning turkiy til taraqqiyotidagi o'rni va roli yuksak ekanini tasdiqlaydi. "Navoiy tili yoki umuman, XV asr tilining muhim xususiyati shundaki, u birinchi galda, tilning uzoq o'tmishda puxta ishlangan, qadimgi, eski turkiy til davrlarida sayqallashgan, toblangan til an'analari davom ettirdi. Buyuk adiblarimiz o'z davri til boyligini ko'ra bildilar, o'tmishning ilg'or tomonlarini o'rgandilar, uni xalq tili an'analari bilan to'ldirib, o'z ijodida qo'lladilar". Aliev, Sodiqov, 1994: 112].

Alisher Navoiy Temuriylar davlatining yirik fan va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Hirot, Samarqand va Mashhad kabi shaharlaridagi madrasalarda ta'lim olganligi ma'lum. Temuriylar davrida va undan keyin ham to XIX asrning oxirlarigacha yurtimizdagi madrasalarda til ta'limi, ayniqsa, arab tili grammatikasi chuqur o'rgatilgan. Shu sababli Alisher Navoiy arab tilini yaxshi bilgan va madrasalardagi ta'lim usuli va an'analari bilan yaqindan tanish bo'lgan. Alisher Navoiy davrida turkiy til bilan birga yana ikki tilda ijod qilish an'ana hisoblangan. Hazrat arab va fors tilidan ham foydalanib, asarlarining jozibali, o'quvchini o'ziga sehirly oladigan darajada bo'lishiga erishgan. U arab tilida "Sab'at ul-abhur" nomli kitob yozgan. "Sab'at ul-abhur" iborasining ma'nosi arab tilidan olingan bo'lib, "Yeti dengiz" degan ma'noni anglatadi. Alisher Navoiyning ushbu asari arab lug'atshunosligiga bag'ishlangan. [Raxmonov, 2024:112].

Hazratning asarlarini tushunish uchun arab va fors tillarini mukammal bilish talab etiladi. So'nggi yillarda Alisher Navoiy asarlarini matniy, falsafiy, lisoniy va badiiy jihatdan o'rganish bo'yicha bir qancha ishlar qilingan bo'lsa-da, shoir ijodining uslubiy o'ziga xosligini ko'rsatuvchi lingvistik omillarni tadqiq etish endi boshlandi. Chunonchi, Navoiy asarlaridagi orttirma darajadagi sifatarning qo'llanishini bevosita badiiy uslub bilan bog'liq holda o'rganish

navoiyshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, bu Hazratning so'z qo'llash san'atini teran tadqiq etishning keng imkoniyatlarini ochadi.

Ma'lumki, arab tilida sifatning qiyosiy va orttirma darajalari I bob fe'llaridan fe'llaridan "af'alu" (muannas jinsda "fu'la" qolipida hosil qilinadi [N.Ibrohimov,1997:453].

Navoiy arabcha sifatning orttirma darajalarini mohirona qo'llaganini uning asarlaridagi ko'plab misollarda kuzatishimiz mumkin.

Kitobing o'zga kutubdin ki bordurur ablag',

Balog'atingg'a munosib Haq aylamish iblog' [A.Navoiy].

Baytdagi – ابلاغ ablag' so'zi balog'atliroq, yetukroq, eng ravshan ifodali, eng yetuk, eng balog'atli ma'nosini bildiradi. Bunda sifatning orttirma darajasi qo'llangan.

Andin a'lodur janob ul shohg'a,

Andaq avsa' fus'hat ul dargohg'a [A.Navoiy. 12, 1996 : 40].

Baytdagi – اوسع avsa' so'zi kengroq, ko'lamdorroq, اعلى – eng oliy,eng yuqori ma'nosida qo'llangan.

Taxti ostida farshi u adno,

Toji ustida durrimo avho.

Bu baytda افوى – avho so'zi eng vafoli, jonga yaqin sifatining orttirma darajasida qo'llangan. ادنى – adno so'zi eng pastda ma'nosida qo'llangan [J. Jo'rayev, 2022:3].

“Chun mulkdin ba'zi aqolim va kisjvarda sort salotini mustaqil bo'ldilar,ul munosabat bila forsiygo'y shuaro zuhur qildilar.” Ana shu ikki tarixiy omil natijasida turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan shoir va olimlarning ko'pi fors tilida yozishga rag'batlanganlar. Alisher Navoiy o'z asarlarini turkiy yoki forsiy tilda yozganidan qat'iy nazar uning asarlarida arabcha o'zlashmalarni ko'rish mumkin. “Ashraqat min” deb boshlanuvchi g'azalida quyidagi arabcha o'zlashmalarni ko'rishimiz mumkin:

Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo,

«Yor aksin mayda ko'r» deb, jomdin chiqti sado.

Ashraqat – arabcha chqish ko'tarilish,taralish porlash. Yor – arabcha do'st, sevgili. Aks – arabcha biror narsaning silliq satxda ko'ringan tasviri. Teskari zid qarama- qarshi. Shams-arabcha quyosh oftob. Ka's-kosa may ichiladigan qadax Anvorul-xudo-arabcha to'g'ri yo'l nurlari [M. Muhammadkalom, 2023:1].

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,

Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

G'ayr –arabcha o'zga boshqa begona yot. Naqsh-arabcha kuy ashula. Zangi g'am-g'am qo'ng'irogi. Vaxdat-arabcha yakka-yagona-birlik tanxolik

Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol.

Jom o'lur getiynamo, Jamshid, ani ichkan gado.

Zarf-arabcha suyuqlik quyiladigan idish, may quyiladigan jom. Nisor-arabcha sochqi,hurmatli kishilarning boshidan gul tanga chaqa yoki tillo sochish. Fido-arabcha bag'ishlash qurrbon. Soqiy – 1) yaqin do'st; 2) ma'shuqa; 3) piri komil; Masallik – kabi, o'xshagan, bamisoli. G'amzudo – g'amni, dunyo tashvishini ketkizadigan. Zarf – idish. Sing'an safol –safol kosa parchasi, ko'chma ma'noda siniq ko'ngil, xoksorlik. Getinamo–olamni ko'rsatuvchi. Jamshid – qadimgi eron podsholaridan[M. Muhammadkalom, 2023:2].

“Xazoyin ul-maoniy” she’rlar to’plami Navoiyning she’riy merosini o’rganishda eng asosiy manba hisoblanadi”. [Qayumov, 2014:207]. Shu fikrga tayangan holda “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi “Badoye’ ul-vasat” devonidagi ayrim so’zlarning semantik ma’nolari tahlilini ko’rib chiqamiz.

Devonda uchraydigan avroq, ahl, dahr, mehr, la’l, lutf, quyosh, jins, jism, jola, jom, jon, bahra, mavzun, majma’, mazbut, mamlu, mezon, misol, nazar, nasm, na’l, naql, no’sh, naqsh, nesh, nigor, ovuch, odat, ozoda, ozor, oy, oyin, savod, sarv, safo, safha, saqat, siym, sin, sipah, sifat, timsol, tig’ kabi so’zlarida ko’p ma’nolilik hamda shakldoshlik xususiyatlari aks etgan. Quyida ba’zi ko’p ma’noli so’zlar izohi bilan tanishamiz: 1. “Badoye’ ul-vasat” devonida izohtalab “avroq” so’zi 14 o’rinda qo’llanilgan bo’lib, bu so’z turli xil semantik ma’nolarni ifodalab kelgan. E.Fozilov tahriri ostida nashr etilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati”da “avroq” so’zining 6 xil ma’nosi baytlar misolida izohlangan:¹⁰

1)Varaqlar, sahifalar ;2)Barglar, yaproqlar;3) Bo’lak, parcha, qism ;4)Qog’oz, hujjatlar;5) Yozilgan narsa, risola ma’osida ;6)Majmua, yig’indi.

Jumladan, 23-g’azalda¹¹ “avroq” so’zi varaqlar ma’nosida qo’llangan: Ishqim Farhod-u Majnun ishqicha bor edi, lekin zamona, falak bu ishq dostonimga yana “bir ikki fasl qo’shdi”, ya’ni azoblangan oshiq izzitirobi aks etgan:

Zamon avroqi-yu ishqim edi Farhod-u Majnundin,

Falak bir-ikki fasl etti izofat dostonimg’a.

– 69-g’azalda “avroq”ning majmua, yig’indi ma’nosiga ishora berilgan. Ya’ni hikmatli fikrlar majmuasi, donishmand insonning purhikmat so’zlari, donishmandligi shu inson uchun go’yoki mustahkam qanot bo’lishi ta’kidlangan:

Sust himmatlig’ bila uchmog’ ne mumkin, ey hakim

Hikmat avroqi ikki egning uza par bo’ldi, tut.

– 79-g’azal sof ishqiy mazmunda bo’lib, ma’shuqaning ishq yo’lida oshiqqa qilgan sitamlari ko’p ekanligi ma’nosida, “avroq” so’zi ishq leksemasibilan birga kelib, ishq yo’lida, muhabbat ko’yida ma’nosini ifodalaydi. (Ishq avroqida, eykim, o’qiding yuz ming balo);

– devondagi 79-g’azalning navbatdagi misrasi yuqoridagi fikrning davomi bo’lib, bu qatorda varaq so’zining ko’pligi ifodalangan, o’z ma’nosida emas, ko’p ma’nolilik, ko’chma ma’noda, ayni damda, hijrondagi varaqlar, hijronda ko’rgan azoblar, dard varaqlari ma’nosi aks etgan. (Yuz tuman oncha erur avroq hijronimda sabt);

– 142-g’azalning quyidagi bayti ishq ilohiy mazmunda bo’lib, bir qarashda murakkab tushunchalar yo’qdek tuyulgan birgina baytda serqatlam botiniy-tasavvufiy ma’nolar mujassamlashganligining guvohi bo’lamiz. Baytdagi badiiy mazmunni ta’minlab turuvchi “avroq” leksemasi “sabr-u saloh”, ya’ni “sabr va zo’hd-u taqvo” so’zlari yaxlit mazmunni ifodalamoqda. Ishq yo’lida sabr varaqlarini necha tartib aylasam ham boshimga ishq sargardonligidan junun, ya’ni savdoiylilik yetgach, tartib aylagan sabr vaqaraqlarim yelga uchdi, deydi lirik qahramon:

Necha tartib aylasam sabr-u saloh avroqini

Sarsari ishq-u junun yetkach, borin barbod etar.

2. Adad so’zi “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati”da bir nechta xil ma’nolarda ifodalab kelishi quyida ko’rsatilgan.¹²

Adad-son-sanoq, bo’lak, parcha, nafar, bosh qator, marta.

3. Navoiy o'z lirikasida alif¹³ so'zidan o'nga yaqin ma'nolarni ifodalashda tasviriy vosita sifatida unumli foydalangan:

alif-harf, kelishgan qomat, oh, nola, o'q, nayza, kina, iz, jarohat, badandagi xolning izi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy ijodida leksik birliklar faqatgina bir qatlamli ma'noga ega emas. Shoirning so'z qo'llash mahoratini quyidagi xususiyatlar orqali umumlashtirish mumkin:

1. Semantik kengayish va universallik: Masalan, "alif" so'zi misolida ko'rganimizdek, oddiy bir harf ramzi orqali ham inson qomati, ham ruhiy iztirob (oh, nola), ham jismoniy jarohat obrazlarini yaratish — bu tilning maksimal darajadagi tejamkorligi va semantik yuklamasining yuqoriligidan dalolat beradi.

2. Kontekstual moslashuvchanlik: "Avroq" so'zining turli g'azallarda goh barg, goh sahifa, gohida esa insonning sabr-toqati qatlamlari (sabr avroqi) sifatida kelishi, Navoiyning so'zni kontekstga qarab "jonlantirish" qobiliyatini ko'rsatadi. Bu esa o'quvchidan nafaqat til lug'atini bilishni, balki asarning botiniy (tasavvufiy) qatlamlarini anglashni ham talab etadi.

3. Omonimlik va ko'p ma'nolilikning badiiy funksiyasi: Shoir qo'llagan shakldosh so'zlar (masalan: jon, jom, dahr) shunchaki so'z o'yini (tajnid) uchun emas, balki asar mazmunini falsafiy jihatdan chuqurlashtirish uchun xizmat qilgan. Bu usul o'zbek mumtoz adabiyotida badiiy tilning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qildi.

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiy leksikasi — bu o'zbek tilining boy imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan ulkan bir tizimdir. Shoirning har bir tanlagan so'zi asarning g'oyaviy yo'nalishi bilan semantik zanjir hosil qiladi.

Shunday qilib, Navoiy asarlaridagi leksik qatlamlar va ularning semantik funksiyasini o'rganish — shunchaki lug'aviy tahlil emas, balki shoirning dunyoqarashi va badiiy olamini tushunishning kalitidir. Uning asarlaridagi so'zlar bugungi kunda ham o'zbek tilining lug'at tarkibini boyitishda va badiiy tafakkur taraqqiyotida asosiy manba bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. /Мукамал асарлар тўплами. 16-том. – Т.: Фан, 2000.35-bet
2. Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1994. 112-bet
3. Topildiyeva F., Tursunova N. Alisher Navoiy va XXI asr. - Т.: «Mashhur-press» 2020. 555-bet.
4. Raxmonov. A. Alisher Navoiy va arab tili. - Toshkent-2024. 223-bet.
5. Ibrohimov N. M. Yusupov. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1997.
6. Alisher Navoiy. Yigirma tomlik. 12- tom. Lisonut tayir. – Т.: Fan, 1996.
7. Jo'rayev J., Burxonov Z. Alisher Navoiy asarlarida arabcha ortirma sifat darajalarining qo'llanishi. – Jizzax, 2022.
8. Muhammadkalom M. Navoiy asarlarida arabcha o'zlashmalar. Образование наука и инновационные идеи в мире. № – 15 Часть-2. Февраль. 2023.

9.Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 207.

10.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – В. 32.

11.Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент. Тамаддун, 2011. – Б. 13.

12.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – В. 32.

13.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985.– Б. 79.